

MUSTAQILLIK YILLARI O‘ZBEKISTON MATBUOTIDA O‘ZBEK FRONT GAZETALARI VA HARBIY JURNALISTLAR FAOLIYATINING YORITILISHI

Ziyoxiddin Raxmonjon o‘g‘li RAIMJONOV

o‘qituvchi

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Andijon, O‘zbekiston

raimjonovziyokhiddin@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek tilida nashr etilgan front gazetalari hamda ularda faoliyat yuritgan harbiy jurnalistlarning milliy harbiy matbuot taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil va manbashunoslik usullaridan foydalanilgan bo‘lib, mustaqillik yillarida nashr etilgan ilmiy adabiyotlar, arxiv materiallari hamda davriy matbuot ma’lumotlari o‘rganilgan. Front gazetalarining tashkil etilishi, ularning mafkuraviy vazifalari, milliy harbiy qismlardagi ahamiyati hamda o‘zbekistonlik harbiy muxbirlarning jangovar va ijodiy faoliyati yoritilgan. Shuningdek, front gazetalarining Ikkinchi jahon urushi tarixini o‘rganishda birlamchi muhim tarixiy manba sifatidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, front gazetalari, harbiy jurnalistika, harbiy muxbirlar, milliy harbiy qismlar, harbiy matbuot, manbashunoslik, O‘zbekiston.

ОСВЕЩЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЗБЕКСКИХ ФРОНТОВЫХ ГАЗЕТ И ВОЕННЫХ ЖУРНАЛИСТОВ В ПЕЧАТИ УЗБЕКИСТАНА ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Зиёхиддин Рахмонжон угли РАИМЖОНОВ

преподаватель

Андижанского филиала Кокандского университета

Андижан, Узбекистан

Аннотация

В статье анализируется деятельность узбекоязычных фронтовых газет периода Второй мировой войны и роль военных журналистов в развитии национальной военной печати. Исследование основано на принципах историзма, сравнительного анализа и источниковедческого подхода. В качестве источников использованы архивные материалы, периодическая печать и научные публикации, изданные в годы независимости Узбекистана. Рассматриваются вопросы организации фронтовых газет, их идеологические функции, значение для национальных воинских формирований, а также боевая и творческая деятельность узбекских военных корреспондентов. Обосновано, что фронтовые газеты являются важным первоисточником для изучения истории Второй мировой войны, национальной военной журналистики и общественно-политической жизни военного времени.

Ключевые слова: Вторая мировая война, фронтовые газеты, военная журналистика, военные корреспонденты, национальные воинские формирования, военная печать, источниковедение, Узбекистан.

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixida keng qamrovli va og'ir qurbonliklarga sabab bo'lgan urushlardan biri hisoblanadi. Urush yillarida harbiy harakatlar bilan bir qatorda axborot va mafkuraviy kurash ham g'alabani ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylandi. Shu nuqtai nazardan front matbuoti harbiy boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida jangchilarni ishonchli axborot bilan ta'minlash, ularning ruhini ko'tarish va mustahkamlash, vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish va harbiy intizomni saqlashda, shuningdek, ularning jangovar qobiliyatini oshshirishda muhim vazifani bajardi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet Ittifoqi qurolli kuchlarining turli frontlarida davlat tili bo'lmish rus tili bilan bir qatorda milliy tillarda ham harbiy gazetalar tashkil etildi. Bu, ayniqsa, milliy harbiy qismlar shakllantirilgan respublikalar uchun katta ahamiyat kasb etdi. O'zbekistonda tashkil etilgan milliy o'qchi brigadalari va otliq diviziyalar tarkibida xizmat qilgan jangchilarning aksariyati o'zbek tilida so'zlashganligi sababli ularni milliy tildagi matbuot bilan ta'minlash zarurati yuzaga keldi. Natijada frontlarda o'zbek tilida bir qator harbiy gazetalar nashr etilib, ular milliy harbiy jurnalistikaning o'ziga xos yo'nalishini shakllantirdi.

So'nggi yillarda Ikkinchi jahon urushi tarixi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, o'zbek tilidagi front gazetolari va ularda faoliyat yuritgan harbiy jurnalistlarning faoliyati hanuzgacha kompleks tarzda yetarlicha o'rganilmagan. Ayniqsa, ushbu gazetalarning tashkil etilishi, tahririyatlar tarkibi, janr xususiyatlari, mafkuraviy vazifalari hamda jangchilarning ma'naviy-ruhiy holatiga ko'rsatgan ta'sirini manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, insoniyat boshiga ko'plab ofatlar keltirgan Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga O'zbekiston xalqi ham munosib hissa qo'shgan. Urushdan oldin O'zbekistonda 6

million 551 mingdan ortiq aholi yashagan bo'lsa, shundan 1 million 950 ming 700 nafar yurtdoshimiz janglarda bevosita ishtirok etgan. Ayovsiz urushdan omon qaytish nasib etgan 1 million 54 ming 298 nafar yurtdoshimizning 870 ming 942 nafari yaralangan va nogiron bo'lgan. Urushdan 896 ming 402 nafar yurtdoshimiz qaytmagan. Ulardan 538 ming 366 nafari jang maydonlarida halok bo'lgan, 150 ming nafari dushmanga asir tushgan, 50 ming nafari konslagerlarda halok bo'lgan, 158 ming 36 nafari bedarak ketgan. Front orti hisoblangan yurtimiz dalalarida, zavod va fabrikalarida asosan ayollar, keksalar hamda bolalar kechani kecha, kunduzni kunduz demay fidokorona mehnat qilganini hisobga olsak, xalqimizning fashizm balosiga qarshi kurashga qo'shgan ulkan hissasini tasavvur qilish qiyin emas [1].

Ikkinchi jahon urushi tarixini o'rganar ekanmiz, frontdagi harbiylar bilan bir qatorda harbiy jurnalistlarning ham faoliyatini alohida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, «El-yurtimizning urush yillarida ko'rsatgan mardlik va qahramonligi biz uchun ulkan jasorat maktabi, g'urur-iftixor manbai bo'lib, vaqt o'tgani sayin bu o'lmas qadriyatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda» [1].

O'rta Osiyo (hozir Markaziy Osiyo – Z.R.) harbiy okrugida ommaviy safarbarlik jarayoni bilan bir vaqtda milliy harbiy qismlarni shakllantirish ishlari boshlandi. Faqat O'zbekistonning o'zida 1941-yil noyabridan 1942-yil martiga qadar respublikaning turli hududlarida joylashtirilgan 14 ta milliy harbiy tuzilma – o'qchi brigadalari va otliq qo'shin diviziyalari shakllantirildi. Ular orasida targ'ibot ishlarini amalga oshirish, jangovar ruhni mustahkamlash va harbiy xizmatchilarning ma'naviy tayyorgarligini oshirishda ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida harbiylar uchun rus tilida maxsus gazetalar nashr etilishi 1941-yil 23-iyunda qabul qilingan «Front, armiya va diviziya matbuoti ishini tashkil etish to'g'risida»gi qaror hamda mamlakat hayotini harbiy izga solgan 1941-yil 29-iyundagi direktiva asosida amalga oshirildi. O'zbek tilida front gazetalarini nashr etish ishlari esa bevosita yuqori tashkilotlar buyrug'i bilan

emas, balki quyi tashkilotlar tashabbusi bilan yo'lga qo'yildi. Jumladan, 1942-yil 5-fevral kuni O'rta Osiyo harbiy okrugi Siyosiy boshqarmasi boshlig'i Qizil Armiya Bosh siyosiy boshqarmasiga maxsus xat bilan murojaat qilib, jangovar milliy qo'shilmalar uchun mahalliy tillarda gazetalar tashkil etishni so'raydi. 25 fevral kuni mazkur iltimos qondiriladi va okrug boshqarmasiga respublikalardagi gazeta tahririyatlari hamda nashriyotlardan muharrirlar, tarjimonlar va adabiyotshunoslarni tanlab olish haqida zudlik bilan buyruq yuboriladi. Natijada Ikkinchi jahon urushi frontlarida asta-sekin o'zbek tilidagi gazetalar nashr etila boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, buyuk tariximizni yangicha, ilmiy va xolisona o'rganish imkoniyati vujudga keldi. Shu yillarda urush davrida o'zbek tilida nashr etilgan front gazetalarida faoliyat yuritgan ajdodlarimiz haqida qator ommabop va ilmiy maqolalar e'lon qilindi.

Xususan, Akrom A'zamov «Toshkent haqiqati» gazetasining 1994-yil 7-mayda chop etilgan «Janglarda charxlangan qalam» nomli maqolasida Belorussiya frontlarida jang qilgan, Minsk shahrini ozod etishda qatnashgan, Polsha va Germaniya hududlaridagi janglarda ishtirok etgan hamda Berlingacha bo'lgan hayot-mamot jangida jasorat ko'rsatgan leytenant Abdug'affor Ubaydullaev haqida hikoya qiladi.

Maqolada A. Ubaydullaev haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: «O'sha suronli urush yillari A. Ubaydullaev 1-Belorussiya frontining "Qizil Armiya" gazetasi muharriri Y. Bilolov bilan tanishadi. Muharrir yosh ofitserni ro'znoma bilan hamkorlik qilishga taklif etadi. Shundan so'ng Abdug'affor bir qo'lida qalam, bir qo'lida qurol bilan jangohlarda jang qildi. Bo'sh vaqti topildi deguncha quroldosh do'stlarining mardligini qog'ozga tushirib, gazetada chop etish uchun tahririyatga olib kelardi. Uning maqola va jang lavhalari, she'rlarida jangchilarimizning jasorati, fidoyiligi va mardligi aks etar, shu bilan birga dushmanga nisbatan cheksiz nafrat ifodalanar edi. Bu asarlar o'zbek jangchilariga dushmandan qasos olish uchun yengib bo'lmas kuch bag'ishlardi. Jumladan, jangchi-shoirning urush yillari qonli jangohlarda bitilgan va front gazetalarida chop

etilgan “Tor-mor o‘lgusi”, “O‘zbek jangchisi tilidan”, “Xalq farmoni” nomli she‘rlari shular jumlasidandir. Urush tugagach ham A. Ubaydullaev ijodini to‘xtatmadi, aksincha yanada faol ijod qildi. Respublika va viloyat gazetalarida urush mavzusidagi maqola hamda she‘rlari muntazam bosilib turdi» [2].

«Qalamlari nayzadek edi» nomli maqolada Ikkinchi jahon urushidagi tub burilish yasagan 1943-yilgi Kursk jangi davrida Kursk, Belgorod va Oryol shaharlari atrofida jang qilgan Turonzamin o‘g‘lonlari ona tilidagi gazetalarni o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lgani ta’kidlanadi. Shuningdek, Zinnat Fatxullin, Ibrohim Rahim, Meli Jo‘ra, To‘g‘on Ernazarov, Zifa Shamsutdinova, Zohidjon Obidov, Zafar Diyor, To‘lagan Soatiy, Ziyo Said, Ilyos Muslim, Rustam Abdurahmonov kabi o‘nlab jurnalistlar o‘zbek jangchilarining jasorati va qahramonligini qalamga olib, ularning jangovar ruhini yuksaltirishga xizmat qilgani haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Maqolada jang tafsilotlari va Kursk jangi ishtirokchilarining harbiy jurnalistlar bilan uchrashuvi haqida shunday ma’lumotlar keltirilgan: “Harbiylar «Vatan sharafi uchun» front gazetasi muharriri, kapitan Rustam Abdurahmonov bilan uchrashadilar. Rustam Abdurahmonov askarlarga ona tilida chop etilgan gazetani tarqatadi. Uni olgan o‘zbek jangchilari gazetani yuzlariga bosib, ko‘zlariga yosh oladilar. Oradan bir-ikki kun o‘tib, gazetada batalon jangchilarining Belenijeno, Marino va Yakovlevka qishloqlari uchun bo‘lgan janglarda ko‘rsatgan jasorati haqida lavhalar chop etiladi”. [3] Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek harbiy jurnalistlari nafaqat muxbirlik, balki janglarda ishtirok etish va jangchilarga ma’naviy dalda berish ishlarini ham amalga oshirishgan.

Harbiy jurnalistlar faoliyati haqida ma’lumot beruvchi maqolalarda ayrim faktik xatolar ham uchraydi. Masalan, «Xalq so‘zi» gazetasining 1995-yil 21-aprel sonida e’lon qilingan maqolada: «Urush yillarida O‘zbekistonda “Qizil Armiya”, “Qizil Armiya haqiqati”, “Qizil askar haqiqati”, “Vatan sharafi uchun”, “Dushmanni tor-mor etishga”, “Bong”, “Suvorovchi”, “Atakaga”, “Front haqiqati”, “Krasnoarmeyskaya pravda”, “Vatan uchun”, “Dushmanga qarshi olg‘a” kabi o‘nlab gazetalar chop etilgan», deb qayd etilgan [4]. Biroq, aslida mazkur

gazetalarning tahririyatlari O‘zbekistonda emas, balki jang maydonlariga yaqin hududlarda joylashgan edi. Shu bois ushbu ma’lumotni tarixiy manbalar asosida aniqlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Urush va mehnat faxriysi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, «El-yurt hurmati» ordeni va «Jasorat» medali sohibi Ziyod Yesenboev o‘z maqolasida G‘alabaning 50 yilligi munosabati bilan 1995-yil 9-may kuni Moskva shahrida o‘tkazilgan yubiley paradida O‘zbekistondan qatnashgan 21 nafar jangchi-faxriy safida ishtirok etganini qayd etadi.

Shuningdek, muallif O‘rta Osiyo va Kavkaz respublikalaridan frontga safarbar etilgan jangchilarning aksariyati rus tilini yaxshi bilmaganini hisobga olib, barcha frontlarda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik, gruzin, arman, moldavan va tatar tillarida gazeta, jurnal, risola hamda tashviqot varaqalari chop etish haqida maxsus qaror qabul qilinganini ta’kidlaydi. Bundan tashqari front gazetalarni tashkil etish va chop qilish, shuningdek, urushning oxirigacha o‘ta og‘ir va xavfli sharoitlarda jangchilarni ona tilidagi gazeta, jurnal hamda varaqalar bilan uzluksiz ta’minlash ishlarida qo‘lida qalam va qurol bilan xizmat qilgan o‘zbekistonlik jurnalistlar munosib hissa qo‘shganini ta’kidlagan.

Muallif fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 60 yilligi nishonlanayotgan davrda ushbu fidoyi jurnalistlarni alohida faxr bilan eslaydi. Ular qatorida Nazir Safarov, Mirzakalon Ismoilov, Rustam Abdurahmonov, Jalolxon Azizxonov, Mumtoz Muhamedov, Adham Rahmat, Adham Hamdam, Nabi Yusufiy, To‘lagan Soatov, Rasul Muhammadiev, To‘lqin Rustamov, Meli Jo‘ra, Ziyo Aminov, Sharif Bulatov, To‘g‘on Ernazarov, Otamurod Avezmurodov, Ilyos Muslim, Lutfulla Xamroev, Umar Xo‘jaev va boshqalar tilga olingan. «Mushtum» jurnali mas’ul kotibi Mumtoz Muhamedov harakatdagi armiya safiga chaqirilib, frontga jo‘natilgach, janglarda bevosita qatnashgani va «Dushmanga qarshi olg‘a» front gazetasida ishlagan yillarida «Nashtar» nomli maxsus bo‘lim tashkil qilib, hajviy maqolalari orqali dushmanga qarshi mafkuraviy kurash olib borganini qayd qilgan.

2-Boltiqlik frontida nashr etilgan «Suvorovchi» gazetasida jangchi muxbir sifatida faoliyat yuritgan Lutfulla Xamroev, urushga ixtiyoriy ravishda ketgan yosh

shoir Ma'ruf Qoriev, harbiy muxbir, gvardiya leytenanti Nazarmat Egamnazarovning harbiy jurnalistikadagi faoliyatini ham alohida yoritgan [5].

2017-yilda «Ikkinchi jahon urushi va front gazetolari» kitobi nashr etilgach, front gazetolari hamda frontda faoliyat yuritgan harbiy jurnalistlar faoliyatini o'rganishda yangi bosqich boshlandi [6].

Tarix fanlari doktori, professor R. Shamsutdinov «Bir qo'lda avtomat, bir qo'lda qalam» nomli maqolasida Mumtoz Muhamedov, Obid Abdurahmonov, Nikolay Zvyozdin, Zifo Shamsutdinova, Saidg'ani Valiev, Sulton Jo'ra, Hasan Izzatiy, Mixail Suvinskiy, Abdulla Sharafutdinov, Ne'mat Abdullaev, Rahimjon G'afurov, Burhon Tursunov va Safar Orzumetov kabi harbiy jurnalistlarning hayoti hamda faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Muallif ta'kidlaganidek, mazkur jurnalistlar taqdiri shuni ko'rsatadiki, Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbekistonlik jurnalist va shoirlar oddiy kuzatuvchi yoki tashviqotchi bo'lmagan. Aksincha, ular front chizig'ida jang qiluvchi askarlar bilan yelkama-yelka turib, harbiy muxbir sifatida jangovar harakatlarda ishtirok etgan. Ular uchun jurnalistlik faoliyati Vatan oldidagi muqaddas burch hisoblangan. Ayrimlari ana shu burchni ado etish jarayonida halok bo'lgan. Ulardan meros bo'lib qolgan maktublar, she'rlar, ocherklar va publitsistik asarlar nafaqat tarixiy hujjat, balki keyingi avlod uchun yuksak ma'naviy meros sifatida ham katta ahamiyatga ega [7; 15–39].

M. Saidxonov o'z maqolasida Andijon davlat universiteti «O'zbekiston tarixi» kafedrasi professori, tarix fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining Andijon viloyati bo'limi rahbari Rustambek Shamsutdinov shaxsiy tashabbusi bilan Rossiya Federatsiyasi davlat arxivlari, shuningdek, Sankt-Peterburg, Moskva va Ximki shaharlaridagi kutubxonalarda saqlanayotgan front gazetalarini izlab topganini ta'kidlaydi [8; 44–48].

Muallif o'z maqolasida harbiy muxbirlarning hayoti va faoliyati haqida to'xtalib, 3-Belorussiya frontida chiqadigan «Qizil askar haqiqati» gazetasining bosh muharriri Adham Rahmat urushning so'nggi kuniga qadar o'z vazifasini

sidqidildan bajarib, ta'sirchan maqolalari, ocherklari, hikoyalari, lavhalari va she'rlari orqali jangchilar qalbiga yo'l topa olganini, gazeta tahririyatida Adham Rahmat bilan bir qatorda Rahmat Fayziy, Ibrohim Rahim va Ma'ruf Hakim ham samarali faoliyat ko'rsatib, g'alabaga munosib hissa qo'shganlarini alohida qayd etgan. Maqolada «Suvorovchi» gazetasining mas'ul muharrir o'rinbosari, jurnalist va yozuvchi Mumtoz Muhamedovning ta'sirchan ocherklari, hikoyalari va maqolalari ham tahlil qilingan [8; 44–48].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek tilida nashr etilgan front gazetalar harbiy matbuotning muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat axborot tarqatish vazifasini bajargan, balki milliy harbiy qismlarda ma'naviy-psixologik barqarorlikni ta'minlash, vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish hamda jangchilarning jangovar ruhini yuksaltirishda muhim mafkuraviy vosita vazifasini ham o'tagan.

Front gazetalar orqali jangchilarga frontdagi voqealar, Qizil Armiyaning g'alabalari, o'zbekistonlik harbiy xizmatchilarning jasorati hamda front ortida amalga oshirilayotgan mehnat jasorati haqidagi ma'lumotlar muntazam yetkazib turilgan.

Tadqiqot davomida front gazetalarida faoliyat yuritgan o'zbekistonlik jurnalist va yozuvchilarning faoliyati har tomonlama tahlil qilindi. Ularning aksariyati faqat muxbir yoki tahririyat xodimi sifatida emas, balki qurol bilan jangovar harakatlarda ishtirok etgan harbiy xizmatchi sifatida ham faoliyat olib borgan. Bu holat front jurnalistikasining o'ziga xos xususiyatini belgilab, harbiy muxbirlarning ijodiy faoliyati bevosita jangovar voqelik bilan uzviy bog'liq bo'lganligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida mustaqillik yillarida nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda front gazetalar haqidagi ayrim ma'lumotlar tanqidiy tahlil qilinib, ularda uchraydigan ayrim faktik noaniqliklar aniqlashtirildi.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri shundaki, front gazetalar faqat davriy matbuot namunasi emas, balki Ikkinchi jahon urushi tarixini o'rganishda muhim birlamchi tarixiy manba hisoblanadi. Ularda chop etilgan xabarlar, reportajlar,

ocherklar, she'rlar va publitsistik materiallar jang maydonlaridagi voqealarni, harbiy xizmatchilarning kundalik hayotini, milliy harbiy qismlarning jangovar faoliyatini hamda urush yillaridagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni tadqiq etish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan, sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan davlatlardagi arxivlar va kutubxonalarda saqlanayotgan o'zbek tilidagi front gazetalarini to'liq yig'ish, raqamlashtirish, ilmiy muomalaga kiritish va manbashunoslik nuqtai nazaridan kompleks tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalishda amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar nafaqat Ikkinchi jahon urushi tarixini, balki o'zbek harbiy jurnalistikasi, milliy matbuot tarixi hamda harbiy targ'ibot tizimining rivojlanish bosqichlarini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Umuman, o'zbek tilidagi front gazetolari Ikkinchi jahon urushi davrida milliy matbuot tarixida o'ziga xos maktabni shakllantirgan. Ular o'zbekistonlik harbiy jurnalistlarning kasbiy mahorati, fidoyiligi va Vatan oldidagi burchiga sadoqatining yorqin namunasi bo'lib, bugungi kunda ham tarix, jurnalistika va manbashunoslik sohalari uchun muhim ilmiy va ma'naviy ahamiyatga ega manba sifatida o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш. Бир бўлсак — ягона халқмиз, бирлашсак — Ватанмиз. 8-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон, 2024. — 344 б.
2. Аъзамов А. Жангларда чархланган қалам // Тошкент ҳақиқати, 1994. — 7 май.
3. Исҳоқов Р. Қаламлари найзадек эди // Ўзбекистон овози, 1995. — 15 апрель.
4. Фронт — фронторти билан мустаҳкам бўлган эди // Халқ сўзи, 1995. — 21 апрель.
5. Эсенбоев З. Қўлда қалам ва қурол билан // Халқ сўзи, 2005. — 4 май.
6. Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. 5 жилдлик. —Тошкент: Akademnashr, 2017.

7. Шамсутдинов Р. Бир қўлда автомат, бир қўлда қалам // Водийнома, 2020.
– № 1. – Б. 15–39.

5. Саидхонов М. Ўзбек адиблари фронт газеталарида // Водийнома, 2019. –
№ 4. – Б. 44–48.